

**MUHAMMAD YUSUF IJODIDA AXLOQIY VA ESTETIK
QARASHLARNING BADIY IFODASI (“KAPALAKLAR” SHE’RI
MISOLIDA)**

Nafosat Xaydarova

Xalqaro innovatsion universitet talabasi

Ilmiy rahbar: Nurali Murodillayev, XIU o‘qituvchisi

Annotatsiya. Muhammad Yusufning “Kapalaklar odamlaridan mehribon” she’ri insoniyatning axloqiy inqirozi haqida og‘riqli, ammo nafis uslubda yozilgan asardir. Shoir bu she’r orqali insonlarga tabiatdan, xususan kapalak singari beozor mavjudotdan ibrat olishni, mehr-oqibatli bo‘lishni, qisqa umrni xiyonatsiz, pok o‘tkazishni uqtiradi.

Kalit so‘zlar: kapalak, jamiyat, axloqiy ideal, timsol, falsafiylik, allegoriya.

Abstract. Muhammad Yusuf's poem "Kind of Butterflies" is a painful but elegant work about the moral crisis of humanity. Through this poem, the poet teaches people to learn from nature, especially from such a harmless creature as a butterfly, to be kind, to spend their short life without betrayal, and to be pure.

Keywords: butterfly, society, moral ideal, symbol, philosophy, allegory.

O‘zbek adabiyotining so‘nggi yillarda eng ko‘p sevib o‘qilgan shoirlaridan biri – Muhammad Yusuf. Uning ijodi, ayniqsa, mustaqillik yillarida hayotga, Vatanga, mehr-oqibatga, pok tuyg‘ular va haqiqatga bo‘lgan intilishlarini o‘zida mujassam etgan she’rlari orqali yangi bosqichga ko‘tarildi. Shoir she’riyati o‘zining xalqona uslubi, sodda, ammo teran ma’nodagi ifodalari bilan ajralib turadi.

Shoirning eng ta’sirli asarlaridan biri – *“Kapalaklar odamlaridan mehribon”* she’ridir. Ushbu asar shunchaki badiiy ifoda emas, balki insoniyatga nisbatan teran axloqiy da’vat, tabiatga muhabbat va poklik haqidagi falsafiy murojaatdir.

Muhammad Yusuf bu she’rida tabiatdagi eng nozik, eng beozor jon zod – kapalak timsoli orqali insoniyatdagi ikkiyuzlamachilik, nafs va manfaatchilikni fosh etadi. She’rning markaziy g‘oyasi oddiy, lekin chuqur – kapalaklar odamlardan

mehribon. Bu satr she'rdagi har banddan so'ng takrorlanib, go'yo har bir fikrni umumlashtirib boradi, o'quvchini fikrga chorlaydi.

Shoir kapalak obrazida mehr, poklik, halollik, bir so'zlilik, xiyonatsizlik, tenglik kabi ezgu fazilatlarni mujassamlashtiradi. Ayniqsa, ushbu satrlar insoniy jamiyatdagi muammolarga bevosita ishora qiladi:

*“Gulga qo'nsa, qanotlari botmaydi,
Ojizlarim birovga tosh otmaydi,
Bir kun yashar, bir-birlarin sotmaydi,*

Kapalaklar odamlaridan mehribon...” Bu satrlar – insonlarga o'ziga xos axloqiy ko'zgudir. Gulga qo'nsa ham uni ezmaydigan, bir-biriga tosh otmaydigan kapalaklar jamiyatiga qarshi qo'yilgan inson jamiyati, ko'pincha, yovuzlik, xiyonat, qasos bilan yashaydi.

She'rdagi kapalak – timsol. Bu timsol bevosita biologik mavjudot sifatida emas, balki *badiiy-falsafiy ramz* sifatida ishlatilgan. Kapalak – qisqa umr ko'radigan, ammo o'sha qisqa umrida go'zallik, beg'uborlik, muvozanat va sokinlik timsoli bo'lib qoladi. U jamiyatda “tabaqa” tushunchasini tan olmaydi:

“Kapalakning kambag'al, biyi yo'q,

Kapalaklar odamlaridan mehribon...” Shoir bu yerda jamiyatdagi tabaqalanish, ijtimoiy tengsizlik, boy va kambag'al, amaldor va oddiy odam o'rtasidagi ajrimni tanqid ostiga oladi. Kapalaklar dunyosida esa bu tushunchalar yo'q. Bu esa shoirning insoniyatga: *“Nega bizda ham bunday bo'lmasin?”* degan nidosidir.

She'rning tagma'nosida adibning chuqur falsafiy qarashlarini sezish mumkin. Shoir hayotdagi ezgulikni tabiatda, yovuzlikni esa insonda ko'radi. Bu qarama-qarshilik orqali u o'quvchini tanlov oldida qoldiradi: inson tabiatdan ibrat olishi kerakmi yoki o'zicha halokat sari yurishda davom etadimi?

*“Oydin oqshom yodga tushding, o malak,
Seni o'ylab bo'ldi yana qon yurak,*

Sevaman deb aldamaydi kapalak!..” Bu satrlar muhabbat timsoli bo‘lib, insonlar orasidagi yolg‘on muhabbat, soxta va yolg‘on va‘dalarga qarshi chin dildan bo‘lgan, toza va beozor tuyg‘ularni ulug‘laydi.

Muhammad Yusufning badiiy mahorati ayniqsa, qiyoslash, takror, tashbeh va xalqona ifodalarda ko‘zga tashlanadi. U she‘rni sodda tilda, ammo chuqur ma‘no bilan to‘ldiradi. Har bir band oxiridagi takror “kapalaklar odamlaridan mehribon” – bu xalq og‘zaki ijodidagi maqolga aylanishi mumkin bo‘lgan satr bo‘lib, g‘oyaviylikni belgilaydi. Bundan tashqari, she‘rda metafora va allegoriya vositalari ham mavjud. Kapalak – shunchaki mavjudot emas, balki axloqiy idealdir. Inson esa bu idealga intilishi kerak bo‘lgan mavjudot sifatida tasvirlanadi.

Xulosa qilib aytganda, Muhammad Yusufning “Kapalaklar odamlaridan mehribon” she‘ri – bu faqatgina go‘zal badiiy asar emas, balki inson qalbini uyg‘otishga chorlovchi, zamonaviy axloqiy manifestdir. Shoir bu asar orqali tabiatga mehr, hayotga hurmat, insoniy munosabatlarga e‘tibor kabi muhim g‘oyalarni ilgari suradi. Bugungi axborot xuruji, ma‘naviy inqiroz davrida bu she‘r har birimizga ko‘zgu va eng muhimi – mehribonlikni unutmazlik kerakligini eslatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Muhammad Yusuf saboqlari / to‘plovchi va hammuallif Sh. Qurbon. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2012.
2. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Navoiy universiteti, 2018.
3. M. Yusuf Saylanma. – Toshkent: Sharq, 2005.
4. Yo‘ldoshev Q. So‘z yolqini. – Toshkent: G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi 2018.